



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/3 (12)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*

ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*

Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*

Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*

Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*

Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*

Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*

Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*

Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*

Зохилов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*

Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*

Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*

Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*

Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*

Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*

Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Иноятова С.Р. Сравнительный анализ эффективности тренинговой программы по усовершенствованию профессионально-важных качеств у лидеров молодежи.....	4
--	---

SOTSILOGIYA

Butayeva X.Y. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirishning sotsiologik xususiyatlari	10
Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S. Intellektual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari	14
Norboyeva S.M. Talabalarda ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning nazariy asoslari.....	21

OILA VA JAMIYAT

Xatamov B.Q. O'smirlar ijtimoiylashuvda virtual olam vositalaridan foydalanishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv mezonlari	26
Rahimova M. Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish	32
Sadullayev Sh. Ayollarda oila-ish balansini ko'rsatkichini shakllantirishning metodologik jihatlari	37

PSIXOLOGIYA

Султанова А.А. Стоит ли замалчивать о проблемах суицида в Узбекистане?	44
Ismaylova R. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda kognitiv xulq-atvor terapiyasi texnikalarining imkoniyatlari	51
Sharapova D.B. 'Housewife syndrome' as a psychological problem	57
Axmedova D.O. Migranlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili	68
Nurbayeva X.U. Gender identifikatsiyaning etnomadaniy xususiyatlari	74

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Ochilova B.M. Ta'lim – gender tengligini ta'minlashda kuchli vosita.....	79
Djoldasova S. Ayollarning biznesdagi huquq va imkoniyatlarini kengaytiruvchi biznes modellar.....	88
Komilova X.T. Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati mazmuni va tahlil.....	96
Suvankulov M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ichki ishlar organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga oid normalari tahlili.....	102
Nurdinova Sh. Migratsiyaning feminizatsiyalashuvi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta'siri	108
Nurmatova N.U. Vitagen ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish	115



Nurmatova Nargiza Ulug'bekovna,
*Profi University Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
e-mail: n.nurmatova2005@gmail.com*

VITAGEN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUVCHI QIZLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish haqida ma'lumotlar berib o'tilgan bo'lib, ularning faolligini rivojlantirish jarayonida Vitagen ta'lim texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Vitagen ta'lim texnologiyasining mazmun va mohiyati haqida pedagog olimlarning qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ijtimoiy, tajriba, ijtimoiy faollik, Vitagen, rivojlanish, texnologiya.

Аннотация. В данной статье представлена информация о развитии социальной активности школьниц, освещены конкретные аспекты использования образовательных технологий Vitagen в процессе развития активности девочек. Освещены взгляды ученых-педагогов на содержание и сущность образовательной технологии Vitagen.

Ключевые слова: образование, воспитание, социальный, опыт, социальная деятельность, ВитAGEN, развитие, технология.

Annotation. This article provides information about the development of social activity of schoolgirls, and specific aspects of the use of Vitagen educational technology in the process of developing the activity of female students. The views of scientist-pedagogues on the content and essence of Vitagen educational technology are highlighted.

Keywords: education, training, social, experience, social activity, Vitagen, development, technology.

Kirish. Yangi taraqqiyot davrida ijtimoiy hayotning tobora globallashib borishi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashishi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi ijtimoiy faollikni tarbiyalab borishni taqozo etmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida gender tenglik masalalariga alohida to'xtalib, qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularni har tomonlama e'zozlash hamda o'z iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun shart-sharoit yaratib berish kerakligini alohida ta'kidlab o'tadi¹.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. — Б. 248-252.

Maqsad va uni asoslash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, "2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur"²da bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish borasida bir qancha muammolar mavjudligi aytib o'tilgan. Bu kabi muammolar sirasiga hududlarda yosh

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyatlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-81-sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>

qizlarning iqtidorlari o'z vaqtida aniqlashtirilmagani, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ishlari aniq bir tizim asosida tashkil etilmagani, shuningdek, ushbu jarayonda o'quvchi-qizlar uchun uslubiy va amaliy yordamning tashkil etilmagani kiritilgan. Bu turdagi muammolarni hal qilishda Vitagen ta'lim texnologiyasining o'rni beqiyosdir.

Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad – Vitagen ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish borasida ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish. Pedagogik texnologiyalar borasida N.N.Azizxo'jayeva, H.T.Omonov, M.B.Xattobov, A.Sh.Muxsiyeva va boshqa shu kabi pedagog olimlar ilmiy manbalarda o'zlarining pedagogik qarashlarini yoritib berganlar. Vitagen ta'lim texnologiyasi borasida esa, A.C.Belkin, V.A.Krivenko va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Maktab o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolliги zamonaviy ijtimoiy, ta'lim va rivojlanish sharoitlariga asoslangan bir qator omillar tufayli dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sanaladi. Ijtimoiy faollik – maktab o'quvchi qizlarining jamoaviy, jamoat yoki fuqarolik hayotiga jalb qilinishini anglatib, bu ularning maktab muhitida faol ishtirokini hamda kengroq jamoatchilik tashabbuslarini qamrab oladi. Bu masala nima uchun e'tiborga molik ekanini tushunish uchun qizlarning rivojlanish davridagi ijtimoiy me'yorlar, gender talablari va shaxsiy rivojlanishida duch keladigan ijtimoiy muammolarga diqqat qaratish lozim.

O'quvchi qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda Vitagen ta'lim texnologiyasidan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

“Vitagen ta'lim texnologiyasi” tushunchasini batafsil ochib berish uchun, avvalo, uning tarkibiy qismlarini tavsiflash, shuningdek, ushbu tushunchani “pedagogik texnologiya” atamasi bilan bog'lash kerak.

“Texnologiya” – materiallar yoki yarimfabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fan.

“Texnologiya” fani ham qadimgi Yunonistonda paydo bo'lib, u ikkita so'z – “texne” – “san'at” va “logos” – “o'rganish”dan tarkib topgan. O'sha davrda, bu hunarmandning predmetni tayyorlash san'atiga, ustoz rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o'zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatar edi.

Tarixan “texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan va

bu tushuncha hozirda san'at, hunar va fan haqidagi ta'limotga muvofiq keladi³.

O'sha davrlarda hunar o'rganish individual tarzda amalga oshirilgan, ko'pgina hollarda, hunar sirlari, faqat avloddan avlodga, oilaviy qarindosh urug'larga o'rgatilar edi. Biroq avlodagi uzilishlar, ma'lum bir kasb sirlarining yo'qolishiga olib kelgan hollar ham uchrab turadi. Bunga yaqqol misol tariqasida qadim Sharqdagi masjid va madrasalarning tashqi va ichki devorlari, gumbazlaridagi naqshlarning tabiiy bo'yoqlar asosida tayyorlanish sirlarining yo'qolib ketganini keltirish mumkin. Bu bo'yoqlar hanuzgacha odamlarni o'zining tabiiyligi, chiroyi, ranglari jilosi, betakrorligi, o'zidan nur taratib turishi va chidamliligi bilan maftun etib kelmoqda.

Vitagen ta'lim texnologiyasi haqida so'z yuritishdan avval ushbu tushunchaning o'ziga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, “Vita” lotinchada “hayot” degan ma'noni anglatadi, ya'ni Vitagen hayotiy ahamiyatga ega, muhim degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu texnologiyaning asoschisi A.S.Belkin hisoblanadi⁴.

Mazkur texnologiya XX asrning 90-yillarida shakllana boshlagan va bu hozirda o'quvchi qizlarning har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi texnologiya hisoblanadi. Vitagen texnologiyasi, eng avvalo, hayotiy tajribaga asoslangan holda, ta'lim va tarbiya jarayonida qizlarning rivojlanishini kafolatlovchi o'zaro natijaviy muloqotni tashkil etishga yordam beradi.

Vitagen texnologiyada boshqa texnologiyalardan farqli ravishda qizlarning hayotiy tajribasini ularning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy vosita sifatida qaraladi. O'quvchi qizlar bilan ishlash jarayonida hayotiy tajribalarga e'tibor qaratish orqali ularning faoliyatini faollashtirish, aniq maqsadga yo'naltirish, hayotiy voqea-hodisalarga e'tiborli bo'lishning rivojlanishiga asos bo'ladi.

Ushbu texnologiya o'quvchi qizlarning shaxsiy hayotiy tajribalari va ular duch keladigan ijtimoiy vaziyatlar haqida fikr yuritishga undashga yordam beradi. O'quvchi qizlar bu hayotiy tajribalarni sinfdosh va tengdoshlari bilan baham ko'rish mumkin, bu orqali boshqa o'quvchi yoshlarni ham *ijtimoiy faol* bo'lishga yordam beradi.

Ijtimoiy faollik tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif berib o'tilgan:

³ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat: o'quv qo'llanma. – Toshkent: “O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam'armasi nashriyoti”, 2006. - 64-b.

⁴ Мухсиева А.Ш. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш: Монография. – Тошкент: “Ilm Ziyo Zakovat”, 2022. – 129 б.

“ijtimoiy subyektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)”ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo’yilgan huquq va burchlarini to’liq amalga oshirishga intilishi⁵”. Shaxs ijtimoiy faolligining asosi hamda manbalari borasida har xil yondashuvlar mavjud, jumladan: atrof-muhit, tabiat va ekologiyani tamoman inkor etishdan tortib, ijtimoiy muhitga, borliqqa ta’sir etadigan ichki (xarakter xususiyatlari, temperament, iroda kuchi) va tashqi (jamiyatdagi normalar, ta’lim va tarbiya, shart-sharoitlar, jamiyat bilan bog’liqlik) va shu kabilar.


O’quvchi qizlar ijtimoiy faolligining mohiyati shundaki, ularning ijodiy faoliyati atrof-dagi dunyoni o’zgartirishga qaratilgan faollik, shuningdek, shaxsiy ta’limning atrof-muhit bilan maqsadli munosabatda bo’lishiga ichki tayyorlikda, o’z-o’zini faollashtirish istagida namoyon bo’lib, maqsadlilik, qat’iyatlilik, harakat qilish istagi, energiya va tashabbuskorlik bilan ajralib turadi. Shaxsning maqsadli harakati uning har qanday ijtimoiy faoliyatini anglatadi. Bunda shaxsning harakati ma’lum bir maqsadga erishishga qaratilgan bo’lib, bu istalgan ongli tasvir sifatida tushuniladi va faoliyat subyektining motivatsiyasi bilan belgilanadi. Shaxs tashqi va ichki motivlar ta’sirida bo’lib, ijtimoiy makonni o’zlashtirish jarayonida asosiysini tanlaydi, uni faoliyat maqsadiga aylantiradi. Shunday qilib, maqsad ongli motivdir. Binobarin, faoliyat ongli va rag’batlantiruvchi xususiyatga ega bo’lsa, u unumli bo’ladi. Shuningdek, o’quvchi qizlarning ijtimoiy faolligi ularning aqliy faoliyati bilan bog’liq bo’lib, o’z navbatida, ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik faoliyatning keyingi rivojlanishini belgilaydi.

O’quvchi qizlardagi ijtimoiy faollik odatiy faolliklarga nisbatan ancha jadal va kuchliroq bo’lgan faollik hisoblanadi. Aynan shularni hisobga olgan holda ulardagi ijtimoiy faollik namoyon bo’lishini turli jihatlar orqali ko’rib chiqish mumkin bo’lib, ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- o’quvchi qizlarning turli faoliyatlarda qatnashish hamda o’zlari ko’zlagan maqsadlariga erishish uchun yuqori darajada faollik ko’rsatishga tayyorligi;
- maqsadlarga erishish jarayonidagi harakatlarning sifatlilik darajasi;
- natija sifatida ijtimoiy faollik namoyon bo’lishi.

O’quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda Vitagen ta’lim texnologiyasining o’rni beqiyosdir. Vitagen texnologiya yettita bosqichdan

iborat bo’lib, uning bosqichlari va o’tkazilish tartibi 1-rasmda keltirib o’tilgan.



1-rasm. Vitagen texnologiyani tashkil etish algoritmi

Vitagen texnologiyaning birinchi tayyorgarlik bosqichi pedagoglardan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Bu texnologiyani o’tkazish jarayonida ishtirok etayotgan pedagog yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo’lishi lozim. Pedagog tomonidan qizlarning hayotiy tajribasiga tayangan holda o’rganilishi ko’zlangan kurs bo’limi yoki mavzu tanlab olinadi. Qizlar ushbu jarayonda o’z hayotiy tajribalarini namoyon qila olishlari uchun Vitagen tajribani rivojlantirish metodlari va usullari tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda esa, ushbu jarayonning maqsad va vazifalari aniqlanib, qizlarga ma’lumotlar beriladi.

Vitagen texnologiyaning uchinchi bosqichi – boshlang’ich diagnostika bosqichi bo’lib, ushbu texnologiyaning eng asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda texnologiyani o’tkazayotgan inson, eng avvalo, qizlarning hayotiy tajribalarini ochib beradi va shundan keyin ushbu ma’lumotlarni tahlil qiladi, qizlar hayotiy tajribalarining sifati, anglanganligi, miqdori, mazmuni, chuqur o’zlashtirilishi, darajasi, ilmiyligi va ishonchliligi keyingi o’rganilishi kerak

⁵ Маънавият асосий тушунчалари изохли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2017.

bo'lgan ma'lumotlar harakatlarini belgilab beradi. Shuningdek, ushbu bosqichda qizlarning hayotiy tajribalari bilan nazariy ma'lumotlar o'rtasida nomuvofiqliklar bo'lsa, aniqlanadi, ushbu aniqlangan nomuvofiqlikni keltirib chiqaruvchi sabablar va dalillar to'planadi. Bu bosqichda texnologiyani tashkil qiluvchi insonning eng asosiy vazifasi o'quvchi qizlar hayotiy tajribalari va ilmiy bilimlar o'rtasidagi nomuvofiqlik qay darajada ekanligini aniqlash hamda ilmiy asoslarga tayangan holda, qizlar Vitagen tajribalarining tarbiyaviy jihatlarini yaqqol ochib berishni nazarda tutadi.

Har bir bosqich o'zaro bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining davomi hisoblanadi. To'rtinchi bosqichda qizlarning hayotiy bilimlari ilmiy bilimlar bilan to'ldiriladi, ba'zi hollarda hayotiy tajribalar inkor etilgan holda ilmiy jihatdan isbotlangan yangi bilimlar bilan to'ldiriladi.

Vitagenik tajribalarni korreksiyalash bosqichida esa, qizlardagi ijtimoiy faollikka oid noto'g'ri go'yalarni, tajribalarni to'g'rilashni nazarda tutadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi pedagogning mahoratligiga va qizlardagi hayotiy tajribalarni chuqur o'rganganligiga bog'liq bo'ladi.

Yakunlovchi diagnostik bosqichda esa, qizlarning ijtimoiy faollikka oid bilim, ko'nikma va malakalari har doimgidek nazorat qilinadi. Lekin bu jarayonda Vitagenik tayyorgarlik metod va usullaridan foydalanilgan holda tashkil qilinadi va albatta, qizlarning ijtimoiy faollikka oid hayotiy tajribalarini o'rganish eng asosiy o'rinni egallaydi.

Texnologiyaning rejalashtirilgan-bashoratlovchi bosqichida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligiga Vitagen tajribaning qanday ta'sir qilishi oldindan bashorat qilinadi.

Vitagen ta'lim texnologiyasi asosida har bir o'quvchi qiz o'quv muhitiga noyob hayotiy tajribalar, bilimlar va imkoniyatlarni olib kiradi. Ushbu tajribalarni tan olish va ulardan foydalanish orqali o'qituvchilar maktab o'quvchi qizlarining ijtimoiy dinamika haqidagi tushunchalarini mustahkamlash hamda empatiya, jamoada ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun faoliyatni moslashtirishi mumkin.

Vitagen ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchi qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonida quyidagicha imkoniyatlarga ega bo'lamiz:

➤ har bir o'quvchi o'zini to'laqonli shaxs sifatida anglaydi va boshqalarning shaxsiyatini ko'rish va hurmat qilishni o'rganadi;

➤ har bir o'qituvchi ta'lim oluvchilarni "kuchli" va "zaif" deb tasniflashdan yiroq bo'lishi lozim, bu shunchaki hamma bolalar har xil, har biri boshqalardan ko'ra yaxshiroq narsani bilishi mumkin;

➤ o'quvchi qizlarning hayotiy tajribalariga katta e'tibor qaratilishi hamda ularning shuuriga "Bir narsani bilmaslik uyat emas, bilishga urinmaslik uyat" shiorini singdirilishi lozim;

➤ o'quvchi qizlar o'z ta'lim trayektoriyasiga ega bo'lish huquqiga ega ekanligini va har bir ta'lim-tarbiya oluvchi shaxs o'qituvchi yoki ota-onasi uchun emas, balki kelajakda jamiyat hayotida o'zining munosib o'rnini egallash uchun o'qishini tushunish kabi imkoniyatlarni yaratib beradi.

Vitagen ta'lim – bu insonning hayotiy tajribasini, uning intellektual va psixologik salohiyatini ta'lim maqsadlarida amalga oshirish (talab) asosida o'rganishi⁶. Vitagen ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning asosiy g'oyasi o'qituvchi va qizlar o'rtasida hamkorlik munosabatlarini shakllantirishdir.

A.S.Belkin Vitagen ta'lim haqida quyidagicha ta'kidlab o'tadi: "Vitagenik ta'lim – bu insonning hayotiy tajribasini, uning intellektual va psixologik salohiyatini ta'lim maqsadlarida amalga oshirish (talab) asosida o'qitish"⁷. Vitagenik ta'lim texnologiyasi bu ajralmas, bog'langan his-tuyg'ular va harakatlar tajribasi, faoliyat tajribasi hisoblanadi. Vitagen ta'lim texnologiyasining ma'nosi – insonning ijtimoiy qiyofasini, o'ziga xos shaxsiyatini shakllantirish, ya'ni individuallik.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, ta'limiy va tarbiyaviy ishlar davomida o'quvchi qizlarni faollashtiruvchi zamonaviy va moslashuvchan tarbiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchi qizlarning yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy yangilanishlarda faol qatnashishini ta'minlashda ulkan imkoniyatlar yaratishga zamin hozirlaydi.

Vitagen ta'lim texnologiyasi o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Haqiqiy hayot tajribasiga e'tibor qaratish, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish va yetakchilikni rag'batlantirish orqali bu yondashuv o'quvchi qizlarda ijtimoiy ko'nikmalar, o'ziga ishonch va mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi. Asosiysi, bu ta'limni ularning hayotiga moslashtirish hamda hamkorlik, fikrlash va harakatni rag'batlantiradigan o'quv muhitini yaratishga yordam beruvchi ta'lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi.

⁶ https://studopedia.ru/25_16819_metod-vitagennogo-obucheniya-as-belkina.html?ysclid=m0tb6oyty1208473821

⁷ Белкин А. С. Теория и практика витагенного обучения. Голографический подход. Образование и наука. 1999. – № 2 (2). – С. 37.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – Б. 248-252.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2006. – 64 b.
4. Белкин А.С. Теория и практика витагенного обучения. Голографический подход. “Образование и наука”, 1999. – № 2 (2). – С. 37.
5. Кривенко В.А. Содержание и технология витагенного обучения учащихся // Наука и школа. – 2009. – №. 3. – С. 8-12
6. Маънавият асосий тушунчалари изохли луғати. – Тошкент: Ғофур Ғулом НМИУ, 2017.
7. Мухсиева А.Ш. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш: монография. – Тошкент: “Ilm Ziya Zakovat”, 2022. – 129 б.
8. Норбоев Т. Ёшлик – фаоллик. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1977.
9. Туленова Г.А. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (Ижтимоий-фалсафий таҳлил): фалс. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2006.

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/3 (12)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O’.,**
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

